

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA TARIX FAKULTETI

“IJTIMOIY-SIYOSIY FANLAR” KAFEDRASI

T.T.Alimardonov, F.Ravshanov, Sh.I. Shazamanov

“GEOSIYoSAT” FANIDAN KURS ISHLARINI TAYYORLASH

BO’YICHA USLUBIY KO’RSATMA

TOSHKENT – 2024

Mazkur uslubiy ko'rsatmada kurs ishini yozish uchun tavsiya va ko'rsatmalar berilgan.
Barcha oliy ta'lif talabalari uchun mo'ljallangan

Tuzuvchilar:

s.f.d., professor T.T.Alimardonov, s.f.d., professor F.Ravshanov, s.f.d., professor Sh.I. Shazamanov

Taqrizchilar:

Z.M.Xidirov- Renessans ta'lif universiteti, “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasini dotsent, yuridik fanlari nomzodi.

Filologiya va tarix fakulteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining 2024-yil “23” oktabrdagi 6-sonli majlisida muhokama qilingan.

Uslubiy ko'rsatma Renessans ta'lif universiteti Kengashining 2024-yil “26” oktabrdagi 2-sonli qaroriga muvofiq o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

KIRISH

Kurs ishlarini bajarish oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga jalg qilishning ta’lim muassasalaridagi eng muhim va istiqbolli turi hisoblanadi. Kurs ishi ta’lim turining oliy ta’lim bosqichida o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, talabani ilmiy adabiyotlardan, normativ hujjatlar va manbalardan mustaqil ravishda yondashib foydalanishga o‘rgatadigan o‘qitish shakllaridan biri hisoblanadi.

Kurs ishi talabalarning u yoki bu fan bo‘yicha, qolaversa, tanlangan mavzu doirasida o‘z nazariy bilimlarini mustaqil kengaytirishga, chuqur o‘rganishga va fikrlashiga yordam beradi, uni kelajakda ilm va fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Shuning uchun ham kurs ishining o‘quv rejasiga majburiy o‘quv shakli sifatida kiritilganligi bejiz emas.

Kurs ishi oliy ta’limning bakalavr yo‘nalishdagi o‘quv rejaga kiritilgan bo‘lib, joriy o‘quv yili tugallanadigan u yoki bu kurs (fan) bo‘yicha yoziladi. Talabaning o‘quv va tadqiqot xarakteridagi asosiy ijodiy ishi kurs ishidir. Kurs ishi - talabalarning ma'lum mutaxassislik bo‘yicha o‘quv rejasidagi asosiy fanlardan mustaqil tayyorlagan tadqiqot ishi hisoblanib bitiruv malakaviy ishni yozish uchun tayyorgarlik bosqichi vazifasini o‘taydi.

Kurs ishini bajarish o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan va har bir talaba uchun majburiydir. Talaba kurs ishini bajarish natijasida o‘zining malakaviy ishlarni va tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarini bajara olish imkoniyatini ko‘rsata bilishi kerak. Talabalar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur:

- a) falsafa, pedagogika, psixologiya, davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari fanlari bo‘yicha bibliografik ko‘rsatkichlardan foydalanish hamda bibliografik malumotlarni rasmiylashtirish;
- b) mavzu bo‘yicha minimal darajadagi muayyan adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, taqqoslash, xulosalar chiqarish va zaruriy ma'lumotlarni qayd qila olish;
- v) mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida o‘rganilayotgan masalaning holatini izchil bayon qilish;
- g) agar zarur bo‘lsa, turli tipdagisi ta’lim muassasalaridagi pedagogik tajriba namunalarini yig‘ish, tahlil qilish va umumlashtirish va xulosalar chiqarish;
- d) kuzatish, tajriba-sinov ishini o‘tkazish, qo‘lga kiritilgan empirik materialni qayta ishslash, uni tahlil qilish, tizimga solish, izohlash va zaruriy xulosalarni chiqarishni egallagan bo‘lishi zarur.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma kurs ishi to‘g‘risidagi umumiyo ko‘rsatmalar, mavzuni tanlashga va uni tayyorlashga ahamiyat berish, ish rejasini tuzish mavzuga doir manba va adabiyotlarni topish, yig‘ilgan materiallarni tahliliy o‘rganish va ularni ma'lum ko‘rinishda tartibga solish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va taqriz olish tartiblari, uni himoya qilish haqidagi fikr, ko‘rsatmalar o‘z ifodasini topgan.

I. Kurs ishi yozishga tayyorgarlik

1.1.Kurs ishi mavzusini tanlash

Kurs ishi mavzulari tegishli kafedra majlisida muhokama qilinadi, tasdiqlanadi va talabalarga ma'lum qilinadi. Talabalar kafedrada mavjud bo'lgan kurs ishlari mavzulari ro'yxati bilan yaqindan tanishib chiqishlari va o'ziga ma'qul bo'lgan mavzuni tanlashi lozim. Albatta talaba tanlamoqchi bo'lgan mavzusi bo'yicha ushbu fandan ma'ruza yoki amaliyot darsini olib boruvchi o'qituvchilar bilan fikrlashgani maqsadga muvofiq. Sababi ba'zi hollarda talabaga oson va tushunarli bo'lib sezilgan mavzu murakkab bo'lishi ham mumkin (tegishli manbalarning kamligi yoki ilmiy adabiyotlarda mavzuning keng yoritilmaganligi va h.).

Kurs ishi mavzusi juda keng masalalarga bag'ishlanmasligi kerak, qisqa masalalarni aniqlash bilan chegaralanmasligi kerak. Mavzu tanlashda shunga e'tibor qaratish kerakki, bu masalani o'rganishning bilmagan narsalarini bilib olish, kursning navbatdagi bo'limlarini o'rganishga yaqindan yordam berishi kerak. Talabalar uchta yoki to'rtta fandan yozadigan kurs ishining bir - biri bilan bog'langan bo'lishi talabaning o'zaro bog'langan masalalarini o'rganishga yordam beradi.

Kurs ishi mavzularining to'plami quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- a) bo'lajak mutaxassislarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi mutaxassislarini tayyorlash vazifalariga mos kelishi;
- b) zamonaviy ilmiy-pedagogik tadqiqotlar yo'nalishlari va muammolarini hisobga olishi;
- v) ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot muammolarga talabalarni jalb qilishi;
- g) psixologik-pedagogik nazariya va amaliyot sohasiga nisbatan extijojni va talabalarning qiziqishlarini hisobga olishi;
- d) umumiyl o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida, huquqni o'qitishning dolzarb muammolariga qaratilgan bo'lishi zarur.

1.2.Kurs ishi bo'yicha umumiyl ko'rsatmalar

Kurs ishi o'quv rejasining tarkibiy qismi hisoblanib, u ma'lum talab va qoidalarga rioya etilgan holda yozilishi hamda himoya etilishi lozim. Bunday talab va qoidalalar bilan talabalarni tanishtirish zarur bo'ladi. Kurs ishi talabalarning tegishli fan (mavzu) bo'yicha nazariy bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlashga qaratilgan faoliyati jarayonidir. Shuningdek bu faoliyat talabani kelajakda bitiruv malakaviy ishi hamda magistratura yo'nalishidagi (dissertatsiya) ishlarini bajarishga tayyorlaydi va uning tajribasini oshishiga yordam beradi.

Kurs ishi yozish jarayonini shartli ravishda quyidagicha bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. OTM professor-o'qituvchisi kurs ishi mavzularini tanlaydi va shakllantiradi.
2. Talaba o'z qiziqishlariga mos keluvchi mavzularni tanlab oladi va biriktirilgan professor-o'qituvchi rahbarligida kurs ishini bajaradi.
3. Ishni bajarishda oldingi tadqiqotlarda o'rganilgan muammolar va olingan natijalar

qisqacha bayon qilinadi ya’ni mavzuni o‘rganilganlik darajasi tanlash, bunda yangi, yana ham mukammalroq metodlardan foydalanish;

4. Oldin tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan, ammo o‘rganilmagan gipotezalarni tekshirish;

5. Maxsus adabiyotlar va davriy siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik nashrlar bilan muntaзам tanishib borish;

6. Dolzarb ahamiyatga ega, kam o‘rganilgan muammo va masalalarni aniqlash maqsadida yetakchi olimlar bilan maslahatlashish.

Kurs ishi mavzusi aniqlanib, ilmiy rahbar bilan kelishilganidan so‘ng kurs ishini bajarish bosqichlari aniqlashtirilgan kalendar-reja ishlab chiqiladi. Mazkur reja tadqiqot ishining borishini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi va talabaga kurs ishini mustaqil hamda ongli ravishda bajarishiga yordam berdi.

1.3. Kurs ishi rejasini tuzish

Kurs ishi rejasini tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘rganishdan keyin boshlanadi. Reja eng qisqa yozma matn hisoblanib, kurs ishi rejasini tuzish tavsiya qilingan adabiyotlarni o‘rganib chiqilgandan keyin boshlanadi.

Reja:

- fikrlar ketma-ketligini o’zida mujassam etadi va umumlashtiradi;
- manba mazmunini xotirada tiklaydi;
- konsept va tezislар o’rnini bosadi;
- har xil turdagи yozishmalar, ma’ruza, xabarnoma, hisobot tuzishga yordam beradi;
- o’z-o’zini nazorat qilishni tezlashtiradi;
- e’tiborning bir nuqtada bo’lishligiga va mashg’ulotlarni rag’batlantirishga imkon beradi;
- yaxshi tanish matnning xotirada paydo bo’lishida foydalaniladi.

E’tiborli tomoni, rejadagi masalalar ko’payib ketmasligi, rejada eng muhim masalalar o’z ifodasini topishi, rejada ko’zda tutilgan masalalar hozirgi zamon talablari bilan aloqador bo’lishi kerak. Reja tuzilganda ko’zda tutilgan masalalarni aniq ifoda qilishga harakat qilish kerak. Ayrim hollarda talaba tuzgan reja oldin ko’zda tutilgan masalalarni takrorlaydi. Masalan, uchinchi masala birinchi masalani, to’rtinchi masala ikkinchi masalani takrorlamasligi kerak.

1.4. Kurs ishi bo’yicha tadqiqot materiallarini yig’ish va tahlil qilish

Kurs ishi bo’yicha tadqiqot materiallarini yig’ish va tahlil qilish bu kurs ishini yozishda eng qiyin va vaqt talab qiladigan bosqichlardan biridir. Talaba katta hajmdagi me’yoriy- hujjatlarni, huquqiy adabiyotlar, tadqiq etilayotgan masalalar bo’yicha normativ-huquqiy manbalar, olimlarning turli yondashuv va qarashlarini aks ettiruvchi monografiyalar va ilmiy maqolalar hamda tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolarni hal etishning turli yo’llari bilan tanishishi

kerak bo‘ladi.

Mavzuni to‘liq ochib berish zarurati talabidan OTM kutubxonalari bilan cheklanib qolmasdan, boshqa kata (shahar) kutubxonalarga ham murojaat qilishni talab etadi. Kurs ishi mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarning barcha turlari ko‘rib chiqilishi lozim. Ishni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha materialni o‘z ichiga olgan darslik va qo‘llanmalarning o‘sha bob va bo‘limlari mazmuniga batafsilroq kirish bilan boshlash kerak. Yaxshi bajarilgan kurs ishining qiymati, muallif tomonidan olimlarning turli pozitsiyalarini tahlil qilishi, ular orasida muammoning mohiyatini aks ettiradigan va (yoki) ushbu masalani hal qilish bo‘yicha o‘z qarashlarini taklif qiladigan pozitsiyani aniqlashga harakat qilishida ifodalanadi. Shuning uchun o‘quv materiali mazmuni bilan tanishish bilangina cheklanish maqsadga muvofiq emas.

Kurs ishi mavzusida tadqiqotda eng asosiy g‘oyasi axborot va bibliografik nashrlarni o‘rganish natijasida shakllanadi. Ilmiy, o‘quv va boshqa adabiyotlarni bosqichma-bosqich o‘rganish maqsadga muvofiqli. O‘qilgan materialning yozuvlari juda xilma-xil bo‘lishi mumkin: oddiy yoki batafsil reja, tezislar, sitatalar. Ko‘rib chiqilgan adabiyotning murakkabroq shakli konspektidir. Konspektlashning quyidagi usulini tavsiya qilamiz: daftар sahifasi vertikal chiziq bo‘yicha ikkiga bo‘linadi, o‘qishning asosiy nuqtalari chap tomonda qayd qilinadi va o‘z izohlaringiz o‘ng tomonda amalga oshiriladi. O‘qigan materialningizni tahlil qilish natijasida paydo bo‘lgan va shu bilan bir qatorda o‘ylab topgan o‘z fikrlaringiz yangi bilim olishning sintezi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rganilayotgan manbalarni tizimlashtirish ularni tahlil qilish va umumlashtirish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Ushbu ishning natijasi o‘rganilayotgan muammoni muhim bilish va asosiy nazariy hamda amaliy qoidalarni shakllantirishning mantiqiy qurilgan tizimi bo‘lishi kerak.

1.5. Kurs ishi tuzilishi

Kurs ishining tuzilishi umumiyl qoida sifatida o‘rnatilgan kirish, asosiy qism, xulosa, statistik ma’lumotlar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topadi. Kurs ishining barcha qismlari bir biri bilan o‘zaro bog‘langan va mavzuni ochib berishga xizmat qilishi talab etiladi.

Mavzuga tegishli amaliy ma’lumotlarni to’plash, tartibga keltirish, tasniflash, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida kurs ishining rejasi takomillashtirilishi yoki uning yo‘nalishi o‘zgartirilishi mumkin.

II. Kurs ishiga qo‘yilgan asosiy talablar

2.1. Kurs ishining hajmi va formati

Kurs ishining umumiyl hajmi kompyuterda yozilgan matnda o‘rtacha 25-30 bet bo‘lishi kerak.

Kurs ishi tuzilgan rejaga muvofiq alohida bandlarga, ya’ni paragraflarga bo‘linadi. Bu

bandlarning nomi qisqacha bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushishi va matnga muvofiq tarzda bosh harflar bilan yozilishi lozim. Betlar arab raqamlari bilan pastki qismning o'rtaida qo'yilishi kerak.

Kurs ishi A4 (210 x 297) formatli oq varaqning bir tomoniga 1,5 interval oraliqda, 14 shriftda yoziladi va uni yozish jarayonida quyidagi hoshiyalar o'lchamiga rioya qilinishi lozim:

Chap hoshiya — 30 mm.

O'ng hoshiya — 15 mm.

Pastki hoshiya — 20 mm.

Yuqori hoshiya — 20 mm.

Ishda me'yoriy hujjatlar va orfografik qoidalar bo'yicha qabul qilingan shartli qisqartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Masalan: y.— yil, yy.— yillar, sh.k.— shu kabi, OTM — oliv ta'lim muassasasi, KHK — kasb-hunar kolleji va boshqalar.

Lekin mutaxassislik fanlariga oid, umuman, huquq sohasiga oid atamalar imkon qadar qisqartirilmasdan yoziladi. Ushbu holatni inobatga olib, kurs ishida qisqartma so'zlarni kamroq ishlatish tavsiya etiladi.

Kurs ishida ba'zi so'z birikmalar qayta-qayta kelishi ko'zda tutilsa, ushbu so'z birikmalarini birinchi yozilishida to'liq yozib, so'z birikmasi tugashi bilan qavs ohib, ushbu so'z birikmasini qisqartma ko'rinishini keltirish kerak. So'ng, ushbu so'z birikmasi qaytarilsa, qisqartma ko'rinishini yozish mumkin. Masalan, bilim, ko'nikma, malaka (BMK), pedagogik texnologiya (PT) va boshqalar.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Asosiy qism ichidagi savollarni sarlavhalarini yozishda bo'g'in ko'chirishga ruxsat berilmaydi. Sarlavha oxirida nuqta qo'yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin arab raqami bilan raqamlar qo'yiladi va raqamdan so'ng nuqta qo'yiladi. Agarda savol ichida savollar keltirilsa, masalan, birinchi savol ichida bitta savol "1.1.", ikkita savol bo'lsa "1.2." shaklda yoziladi.

Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar boshlanishida raqam qo'yilmaydi. Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshlanadi. Kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va asosiy qism savollari bir xilda, varaqning yuqori qismining o'rtaida yozish tavsiya etiladi. Barcha surat (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar, "rasm" so'zi va bo'lim bo'yicha ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Ilovalarda keltirilgan suratlar bundan mustasno. Surat raqami bo'lim va surat raqamidan iborat bo'lib, nuqta bilan ajratiladi, masalan "1.2-rasm" va izoh beruvchi yozuv pastga yoziladi.

Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Har bir jadval sarlavhaga ega bo'lishi kerak. Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavhani ostiga chizilmaydi. Jadvalning sarlavhasi uning yuqorisiga, o'rta-yozilishi tavsiya etiladi. Jadval grafalarining sarlavhalari bosh

harflar bilan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tashkil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo'lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak. Ko'plab grafalarga ega bo'lgan jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi. Bo'limlar doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan: "1-jadval", "2-jadval" va h. Agar kurs ishida bitta jadval bo'lsa, u raqamlanmaydi va "jadval" so'zi yozilmaydi. Jadvalning biror qismi boshqa betga o'tganda, "jadval" so'zi va uning tartib raqami bir marta jadvalning birinchi qismi ustida ko'rsatilib, qolgan qismlar ustiga "davomi" degan so'z yoziladi.

Matndagi manbalarga havola ("snoska") larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Havola har bir betda arab raqamida ketma-ket tartib bilan keltirilishi lozim. Keyingi betda esa yana boshidan tartib bilan ilova qo'yilishi tavsiya qilinadi.

Havolalarni keltirish tartiblari:

- hujjat va ta'rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirganda;
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo'yicha iqtibos keltirganda;
- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirganda;

- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirganda;
- statistik ma'lumotlar va to'plamlardan iqtibos keltirganda;
- me'yoriy-huquqiy hujatlardan iqtibos keltirganda;
- bir betda iloji boricha 3 tadan ko'p iqtibos keltirish tavsiya qilinmaydi;

2.2. Kurs ishining tarkibi

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi quyidagi qismlarni qamrab olishi lozim:

- titul varag'i
- reja
- kirish qismi
- asosiy qism
- xulosa va takliflar
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ilovalar

1.Titul varog'i. U quyidagi talablar asosida shakllantiriladi:

Yuqorida – oliy ta'lim muassasa va kafedra nomi, varoqning o'rtasida talabaning familiyasi, ismi, otasining ismi, kursi va fakulteti yoziladi. Quyiroqda kurs ishining mavzusi, yana ham pastroqda o'ngdan ilmiy rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi, chapda uning ilmiy daraja va unvoni ko'rsatiladi. Pastda – kurs ishi yozilgan yil qayd qilinadi (1-ilova).

2. Mundarija, bunda kurs ishining rejasi va uning bob, bo'limlari ko'rsatiladi. Mundarija kurs ishining tuzilishiga qat'iy mos bo'lishi, qisqa, lo'nda, ketma-ketlikda va aniq tarzda uning

ichki mantiqini ochib berishi zarur. Shuningdek, unda ishning har bir bobi va paragrafi qaysi sahifadan boshlanishi aniq ko'rsatiladi.

3.Kirish

Kirish qismining hajmi 3-5 betdan oshmasligi lozim. Unda nazariy va amaliy jihatdan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi, uning tadqiqotchanlik darajasi tushuntiriladi, tadqiqot obyekti va predmeti, ishning maqsadi va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi va kutilayotgan natijalar, tadqiqot uchun qo'llaniladigan metodlar belgilanadi.

Mavzuning dolzarbliyi - kirish qismida talaba muammoning tadqiq etishning zaruriyati, muhimligi va ijtimoiy ahamiyatini ko'rsata olishi lozim. Mavzuning dolzarbligini yoritish barcha ilmiy ishlarda majburiy talabdir. Muallif mavzuni tanlagan ekan, uning ilmiy salohiyati va kasbiy tayyorgarligi, albatta, bu mavzuni ma'nosini tushunib yetishi va uni zamon talabiga mosligi hamda ijtimoiy muhimligini baholay olishi kerak. Dolzarblikni yoritishda asossiz gaplar yozilmasligi kerak. Mavzuning dolzarbligining asosiy omillarini to'liq bir sahifada ko'rsatish yetarli bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi - kurs ishining ushbu qismida mavzu kimlar tomonidan qaysi tomonlari o'rganilganligi, qaysi qismi o'rganilmaganligiga alohida urg'u beriladi.

Tadqiqot obyekti – bu muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o'ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yo'naltirilgan narsa.

Tadqiqot predmeti - obyektning aniq bir qismi bo'lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin. Tadqiqot predmetini tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot obyekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin.

Tadqiqot maqsadi - bu talaba o'z kurs ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijadir. Muammo yechimi talaba ishining maqsadi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqsad tadqiqotning xarakteri, borishi va vazifalarini belgilovchi o'ziga xos oxirgi sababdir. Shu asosda ish tuzilishining aniq maqsadga bo'ysundirilishi kerak bo'lgan mantiqiyligi kelib chiqadi. Tadqiqot maqsadini ifodalashda ishlatiladigan iboralar va so'z birikmalari: «*aniqlash...*», «*belgilash...*», «*asoslash...*», «*aniqlashtirish...*», «*ishlab chiqish...*» .

Tadqiqot vazifalari - bu ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo'llar va vositalarning tanlanishidir. Vazifalarni maqsadga erishish uchun qilinishi zarur bo'lgan narsaning tasdiqlanishi shaklida ifodalash eng ma'qul variantidir. Vazifalarning qo'yilishi tadqiqot maqsadining kichik maqsadlarga bo'linishiga asoslanadi. Vazifalarning sanab o'tilishi unchalik murakkab bo'limgan vazifalardan eng murakkab, ko'proq mehnat talab qiladigan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo'yicha quriladi, ularning soni esa tadqiqotning teranligi bilan belgilanadi. Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ular yechimlarining bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblar sarlavhalari ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo'ladi.

Tadqiqot metodlari - Metod (lotincha «metodos»-«yo'l») tadqiqot yo'li, nazariya, ta'lomit deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Kurs ishini yozishda maxsus metodlar foydalanylarki, ular yordamida ta'lum-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o'r ganiladi. Kurs ishining tadqiqot bosqichlari quyidagilardan iborat: ma'lumotlarni yig'ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo'yicha miqdoriy tahlil o'rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, xulosalarning to'g'riligini ta'minlovchi ma'lumotlarni yig'ish, ta'lum-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar. Mutaxassislik fanlardan kurs ishi yozishda asosan quyidagi pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalilanadi: adabiyotlar va arxiv materiallarini o'r ganish, kuzatish, suhbat, so'rov, test, eksperiment va h.k. Kirish yakunida kurs ishining tuzilishini ochib berish, ya'ni uning tarkibiy elementlari ro'yxatini berish maqsadga muvofiqdir. Kirish qismida tadqiqot muammosi bo'yicha biron-bir kategoriyaning mazmuni va ta'rifi bo'lmasligi kerak, bularning barchasi asosiy qismdagi bob va paragraflarda o'z aksini topishi kerak.

Kurs ishi mavzusini kelgusida chuqurroq, kengroq doirada o'r ganib, uni bitiruv malakaviy ish sifatida davom ettirmoqchi bo'lgan talabalar tadqiqot ilmiy tuzilmasining barcha qismlarini jiddiy o'ylab ko'rishi zarur.

4. Kurs ishining asosiy qismi rejadagi asosiy punktlarni o'z ichiga oladi. Unda tekshirilayotgan masalaning tarixi va nazariyasi ko'rsatiladi, mavjud adabiyotlarning tanqidiy tahlili beriladi, muallifning o'z nuqtai nazari bayon qilinadi. So'ngra mustaqil ravishda o'tkazilgan tadqiqotning metodlari, tashkil etilishi va natijalari bayon qilinadi.

Ishni mavzuga doir adabiyotlar bilan ishlashdan boshlash zarur. Bibliografik ma'lumotlarning 3 xil manbasi ajratiladi:

- a) birinchi (maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va b.);
- b) ikkinchi (bibliografiya, referativ jurnallar, ilmiy axborot va b.);
- v) uchinchi (boshqa kitoblardan terib olib yozilgan asarlar, lug'atlar va b.).

Bibliografik (qaerda, qanday manbalarda zaruriy ma'lumotlar bor) va sof ilmiy-ma'lum bo'lgan bilimlar mazmunini bildiruvchi ma'lumotlarni farqlash kerak.

Kurs ishini yozish jarayonida sohaga oid ilmiy, ilmiy-pedagogik jurnallarni ko'rib chiqish zarur. Bunda jurnallarning yil uchun oxirgi sonida maqolalarning mavzular bo'yicha ko'rsatkichi nashr qilinadi. Muayyan mavzular bo'yicha adabiyotlar tavsilotlari bilan tanishish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish natijasida quyidagilarga ega bo'lish lozim:

- a) kim va qaerda (qaysi ilmiy muassasa, markazlarda) tadqiqot mavzusi yuzasidan ishlagan

va ishlamoqda?

- b) ushbu ishlarning natijalari qaysi manbalarda e'lon qilingan?
- v) mazkur natijalar nimalardan iborat?

Talaba tomonidan qo'fga kiritilgan ma'lumotlar yozma ravishda qayd qilinadi. Ularning uch turi mavjud.

Birinchi materiallarga bibliografik kartochkalardagi yozuvlar, sitatalar, mikrofilmlar, tadqiqot muammosiga doir alfavit katalog kiradi.

Ikkinci materiallar ilmiy yoki metodik manbadagi ma'lumotlarni analitik-sintetik qayta ishlash natijasi bo'lgan yozuvlar, rejalar (sodda va murakkab), grafik-sxemalar, mustaqil ravishda tuzilgan predmet-ko'rsatkichlar, annotatsiya, tezis, konspekt va boshqalardan iborat bo'ladi.

Uchinchi materiallarda birinchi va ikkinchi materiallar umumlashtiriladi. Uning mazmuni qisqa tafsilot ko'rinishida bo'lib, unda mavzuga doir oldindan ma'lum bo'lgan ilmiy dalillar, qonuniyatlar, nazariyalar, tushunchalar umumlashtiriladi.

Tafsilotni tuzishdan avval mavzuga doir asosiy tushunchalarni aniqlashtirish lozim. Chunki huquq sohasida turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinayotgan atama va tushunchalar kurs ishiniing boshidan oxirigacha bir ma'noda tushunilishi zarur. Tushuncha va atamalar belgilanganidan so'ng ularning izohi quyidagi manbalardan aniqlashtiriladi:

- a) ensiklopediyalar (masalan, pedagogik, psixologik, filosofik va b.);
- b) izohli lug'atlar: umumiyl ("O'zbek tilining izohli lug'ati" 3 tom) va maxsus (masalan, pedagogik, psixologik, sotsiologik);
- v) tadqiqot mavzusiga doir asosiy darsliklar va monografiyalarning mundarijasi hamda fani.

Tushunchalarning izohi topilganidan so'ng alohida varaqalarda qayd qilinadi va tahlil, qiyoslash, tasniflash, umumlashtirish usullari yordamida mazmunan qayta ishlanadi.

Tadqiqot mavzu bo'yicha tafsilot yozishda kamida 20 ta manbadan foydalanish zarurdir.

Ishdag'i eng muhim nuqtalardan yana biri xulosalarni muhokama qilish jarayoni hisoblanadi. Bunda quyidagi savollarga javob topish zarur: Nima uchun shunday bo'ldi? Buning sabablari nimada? U yoki bu dalilni nima bilan izohlash mumkin? Ishning bu bosqichida boshqa mualliflar tomonidan olingan nazariy va amaliy xulosalarni jalb qilish, ya'ni ular bilan o'z shaxsiy xulosalarini qiyoslab, taqqoslab ko'rish, olingan ma'lumotlarni tushuntirish, izohlash zarur bo'ladi. Natijalar asosiy matnda qanday tartibda berilgan bo'lsa, ularni shu tartibda xulosalab ko'rsatish lozim.

Ish mantiqiy izchillikda, adabiy til nomalarida yoziladi. Unda murakkab qo'shma gaplardan, shuningdek, o'ta jo'n tuzilgan sodda gaplarni ishlatish maqsadga muvofiq emas. *Mening kuzatishimcha, men hisoblaymanki, mening fikrimcha* tarzida 1-shaxs birlik nomidan gapishtir o'rniga *Bizning kuzatishimizcha, biz hisoblaymizki, bizning fikrimizcha* kabi iboralardan foydalanish ilmiy etiketga to'g'ri keladi. Kurs ishini yozishda yagona uslub saqlanishi, hozirgi

o‘zbek adabiy tilining orfografik, sintaktik va stilistik me’yorlariga amal qilinishi lozim.

5. Xulosa. Kurs ishining xulosa va takliflar qismi 3-6 bet atrofida bo’lib, unda talaba ilmiy tadqiqotning xulosa va takliflarini bayon etadi.

Bu qismida ishning muallif tomonidan ishlab chiqilgan asosiy natija va xulosalari keltiriladi, ularning amaliy ahamiyati , ish natijalarining joriy qilinish imkoniyatlari va mavzuni kelgusida tadqiq qilish istiqbollari ko‘rsatiladi.

Xulosaga qo‘yiladigan asosiy talab–uning qisqa va mulohazaliligidir: unda ishning mazmunini butunligicha qaytarish shart emas. Xulosa quyidagi savollarga javob bera olishi kerak:

- a) talaba nima uchun aynan ushbu tadqiqotni amalga oshirdi?
- b) qanday ishlar amalga oshirildi?
- v) muallif qanday xulosalarga keldi?

6. Foydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kurs ishi matnida havola qilingan barcha ilmiy va boshqa nashrlar ro‘yxatidan iborat bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati quyidagi uch qismdan iborat bo‘ladi:

- normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar;
- monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar;
- foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo, sistematik yoki matnda havola qilinishi ketma-ketligi tarzida keltiriladi.

Kurs ishida foydalanilmagan va havola qilinmagan adabiyotlarni ro‘yxatga kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kurs ishida foydalangan materiallar manbai, uning muallifi va nomi to‘liq ko‘rsatilishi lozim.

7. Ilovalar. Ular, odatda, alohida sahifalarda ko‘rsatiladi. Ularning har biri o‘z mavzusiga ega bo‘ladi va o‘ng tomonning yuqorisida “Ilova” degan yozuv qayd qilinadi. Agar ilovalar bir nechta bo‘lsa, ular “1-ilova”, 2-ilova” tarzida rasmiylashtiriladi.

Ilovaga mustaqil ravishda tuzilgan, anketalar yordamida yig‘ilgan empirik material, darslar va tarbiyaviy tadbirlarning konseptlari, kuzatishlar bayonnomalari, bayram ssenariylari, bolalarning rasmlari va fotosuratlari joylashtiriladi.

2.3. Kurs ishiga rahbarlik qilish

Kurs ishiga rahbarlik pedagogik staj, tajribaga ega bo‘lgan yoki ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan kafedra o‘qituvchilari, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari, turli markazlar xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda yoziladi, bunda u ilmiy rahbar maslahatlaridan foydalanadi va ishining borishi yuzasidan raxbariga hisobot berib boradi.

Kurs ishlari o'quv jarayoni olib borilayotgan tilda yoziladi. Kurs ishi imlo xatolarsiz, ravon tushunarli tilda yozilishi, jumla va gaplar aniq ifodalanishi, ular o'zaro bog'liq bo'lisi va bir-birini to'ldirib turishi kerak. Unda keltirilayotgan statistik ma'lumotlar faqatgina ko'rgazma (illyustratsiya) vazifasini o'tab qolmasdan, xulosalar chiqarish va ularni isboti uchun xizmat qilishi lozim. Kurs ishida keltirilgan barcha asoslar va ma'lumotlarning aniqligi va haqiqiyligi uchun uning muallifi javobgardir.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda shaxsan bajarilishi shart.

Talaba tomonidan turli xil manbalardan dalillar, statistik ma'lumotlar, turli mualliflarning fikrlaridan iqtiboslar keltirish to'g'ri va ilmiy ma'lumotlari bilan ta'minlangan bo'lisi kerak.

Kurs ishida ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish nashr etishga tayyorlanayotgan ilmiy ishlar talablariga javob berishi kerak.

Kurs ishini yozish jarayonida talaba shu sohada mavjud bo'lган va o'zi foydalangan boshqa ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, ma'lumotnomalardan dalillar keltirishi zarur.

Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish davomida talaba quyidagi shartlarga rioya qilishi lozim:

kurs ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar va boshqa manbalardan dalil keltirish bir xil tartibda yoritilishi kerak;

matnda foydalanilgan manbalar sahifa ostida izoh (snoska) tarzida aniq va to'liq keltirilishi, ya'ni muallif va adabiyotning nomi, nashriyoti, yili va beti keltirilishi kerak;

- sahifa ostidagi izoh tarzidagi yozuvda vaqtli nashrlar, kitoblar, maqolalar nomi qo'shtirnoqqa olinmaydi;

- sahifa ostidagi izoh (snoska) intervalda 10 shriftda yozilishi lozim;

- kurs ishlari yozish jarayonida foydalanilgan adabiyot va ilmiy manbalar soni mavzuni ochib beradigan darajada bo'lisi zarur.

Kurs ishining rahbari:

a) talabaga tanlangan mavzu doirasidagi masalalar va tadqiqot metodlarini aniqlashda, tayyorgarlik rejasini belgilash va kurs ishini shakllantirishda yordam beradi;

b) talabaga kurs ishi yozish jarayonida maslahatlar berib boradi, sistematik nazoratni amalga oshiradi, bosqichli attestatsiyani o'tkazadi (semestrda ikki marta) va bu haqda kafedra rahbariyatiga xabar beradi;

v) kurs ishini tekshiradi va unga taqriz beradi.

Kurs ishining himoyasi ochiq ravishda o'tkaziladi. Ish muallifi 10 min. davomida ish yuzasidan ma'ruza qiladi va o'qituvchi-talabalarning savollariga javob beradi. Ma'ruzada muammoning o'rganilish holati, tajriba-sinov ishlarining natijalari (agar o'tkazilgan bo'lsa), tadqiqotning istiqboli, xulosa va takliflar aks etgan bo'lisi lozim.

Kurs ishining himoya qilish natijalariga ko'ra talabaning reyting daftarchasiga tegishli ball qo'yiladi.

Juda yaxshi ball va e'tirofga ega bo'lgan kurs ishlari boshqa talabalarga namuna sifatida metodik xonada saqlanadi.

2.4. Kurs ishi himoyasi

Belgilangan tartibda yozilgan kurs ishi (kompyuterda bajarilgan holda uning elektron varianti bilan birga) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi.

Ilmiy rahbar kurs ishini ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab bir hafta ichida ko'rib chiqib, uni talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedraga taqdim etadi.

Kurs ishida qo'pol xato-kamchiliklar bo'lmasa, himoyaga tavsiya etiladi. Talaba ko'rsatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to'g'rakash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanishi kerak.

Agarda kurs ishida xato-kamchiliklar ko'p bo'lsa, ularni bartaraf etgandan so'ng, himoyaga tavsiya etilishi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda xato-kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish uchun taqriz yoziladi.

Agarda talaba kurs ishini sababsiz o'z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to'liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar kurs ishi himoyaga qo'yilmaydi deb yozma xulosa beradi. Kotiba taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan ro'yxatdan o'tkazib qo'yishi kerak. Kurs ishlarini ro'yxatga olish kitobida har bir guruhni alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilanadi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a'zodan iborat bo'ladi. Kurs ishi himoyasida komissiya tarkibidan kamida 3 ta azo bo'lishi talab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 10-15 daqiqa (5-7 daqiqagacha talaba ma'ruzasi, 5-10 daqiqagacha savol-javob) davom etadi. Talaba o'z ma'ruzasida mavzu to'g'risida qisqacha tushuncha berishi, ya'ni mavzuning dolzarbliji, muammosi, xulosa va taklif haqida to'xtalishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar haqida to'xtalishi kerak.

Himoyadan so'ng, komissiya a'zolari yopiq majlis o'tkazib, talabalarning ishini baholash qarorini qabul qiladi.

Komissiya a'zolari quyidagicha qarorni qabul qilishi mumkin:

- kurs ishini himoya qilganligini bildiruvchi baho qo'yilishi;
- himoyaga kiritilmagan bo'lishi;
- «himoyaga kelmedi» bo'lishi;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo'lishi;
- qayta himoya qilish uchun muddat berilishi;
- boshqa mavzuda qayta ishlab, himoya qilish tavsiya qilinishi.

Uzrli sabab bilan kurs ishini belgilangan muddatda himoya qilmagan talabalarga dekanning ruxsati bilan, komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar, boshqa muddatlarda himoya

qilishga ruxsat beriladi.

2.5. Kurs ishini baholash

2 baho (0-59 ball, o‘tolmadi):

Kurs ishi uchun 2 baho olish (0-59 ball) talabaning mavzuni yoritishda muvaffaqiyatsizligini anglatadi. Mavzuga oid ma'lumotlar yetaricha yoritilmagan bo'ladi, natijada ishning asosiy g'oyalari va muhim tushunchalari aniq tushunilmaydi. Talaba ish davomida mavzu bilan bog'liq bilimlarni yetarli darajada anglashga muvaffaq bo'lmaydi, bu esa natijada ishi, odatda, qoniqarli emas.

Ishning tuzilishi ham muammoli bo'lishi mumkin: bo'limlar o'rtasida bog'lanish yo'q va izchil struktura mavjud emas. Maqola aksincha, mantiqsizliklardan iborat bo'lib qoladi, chunki fikrlarni tartibga solish yoki ularga rasmiy va izchil yondashish amalga oshmaydi.

Tadqiqot va dalillar jihatidan talaba aniq va ishonchli ma'lumotlardan foydalanmaganini ko'rsatadi. Bunday hollarda, talaba dalillarni iste'mol qilishda, qo'llanishda yoki tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va natijada ishi kuchsiz, asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lmaydi. Yozilgan nutq uslubi ham yuqori sifatda emas; ko'plab grammatik va uslubiy xatoliklar mavjud bo'lib, bu mantiqiy tushunishni qiyinlashtiradi.

Himoya paytida talabada ingliz tilida gapirish qobiliyati ancha susayadi; uning nutqi tushunarsiz, ko'plab grammatik va leksik xatolar mavjud. Oddiy fikrlarni ifoda etishda qiyinchiliklar seziladi va har qanday izoh berish jarayoni ko'plab to'xtash va muammolar bilan birga keladi. Og'zaki nutq ravonligi juda past bo'lib, bu qiyinchilik bilan ifoda etish va faqat ba'zi parchalarni o'qish bilan cheklanadi.

3 baho (60-69 ball, qoniqarli):

60-69 ball oralig'ida baholangan ish, talabaning mavzuni yoritishga harakat qilganini, lekin chuqurroq mavzuni kiritishda kamchiliklar borligini ko'rsatadi. Talaba mavzu bo'yicha asosiy bilimlarni to'plasa ham, ushbu bilimlarni chuqur tushunishda yoki har tomonlama tahlil qilishda yetarli bo'lmaydi. Mavzuning ba'zi jihatlari yuzaki yoritilgan bo'lib, talabaning potensialidan kam foydalanilgan.

Ishning tarkibi yaxshi darajada bo'lishiga qaramay, izchil va mantiqiy tuzilishga erishilmagan holatlar ham bo'lishi mumkin. Bo'limlar va tushunchalar bir-biriga ulanishda muammolar paydo bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchiga yozuvni o'qishda qiyinchilik tug'diradi.

Dalillar jihatidan talaba ba'zi manbalarni keltirgan bo'lishi mumkin, ammo ularning kuchliligi va ishonchliligi yetarli darajada emas. To'g'ri tadqiqot olib borishda qiyinchiliklarga olib keladi, shuningdek, o'quvchining qiziqishini ushlab turish va ishning kuchli tomonlarini namoyish qilish imkoniyatini cheklaydi.

Yozma nutq uslubi maqbul bo'lishiga qaramay, ba'zi xatolar mavjud, bu esa ishning umumiyligi ta'sir qiladi. Himoya vaqtida nutqning ravonligi qoniqarli, lekin ba'zi grammatik

va leksik xatolar natijasida taassurotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Talabaning fikrlarni tarqatishda o'zini erkin his qilishi uchun bir necha savollar yoki o'yinchilar bilan suhbati zarur. Og'zaki nutqdagi ravonlik ba'zi holatlarda to'xtashlar yoki zaruriy talaffuzlar bo'lishi mumkin, bu esa ularning izchil va aniq ravishda ifoda etishi uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bunda, fikrlarni tez va samarali tarzda ifoda etish, tushunchalarni izchil ravishda talqin qilishda ba'zi muammolar paydo bo'ladi.

4 baho (70-89 ball, yaxshi):

70-89 ball oralig'ida baholangan ish, talabaning mavzuni aniq va to'g'ri yoritganini ko'rsatadi, chunki u tahlil qilish va muhokama qilish uchun zarur joylarni ham o'z ichiga olgan. Uzoq muddat davomida o'rganilgan bilimlarni chuqur anglash imkoniyatiga erishgan talaba, ayrim g'oyalarni yoritishda yetarli darajada kuchli va ishonchli dalillar bilan ish olib boradi.

Ishning tuzilishi ham mantiqiy va izchil, har bir bo'lim bir-biriga bog'lanadi va bir-birining taklifi sifatida ko'rindi. Bu esa o'quvchingizga osonlik bilan yozuvni o'qish va tushunishga yordam beradi, shuningdek, o'z fikrlarini o'rganishni osonlashtiradi.

Talaba istalgan darajadagi dalillarni keltirishda kuchli va ishonchli manbalardan foydalangan. Tadqiqotning sifatli natijalari talabaning mavzuni o'zlashtirishga qaratilgan tajribalari va izlanishlari haqida aytib beradi. Bunda, ishonchli manbalardan foydalangan holda, ishi kuchli va asoslangan yondashuvni o'z ichiga oladi.

Yozma nutq uslubi juda yaxshi tashkil etilgan; umumiy xatoliklar minimal va ochiq fikrlarni ifoda etish qobiliyati yaxshi. Talaba yozma nutq uslubida aniq va izchil ravishda yaratilgan bo'lib, o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli.

Himoya paytida talabaning ingliz tilida gapirish ko'nikmalari ajralib turadi. Nutq aniq va ravon ifoda etiladi, talaba o'z fikrlarini tushunarli tarzda etkazadi. Kamdan-kam hollarda xatoliklar yuzaga keladi, til boyligi va ifoda qobiliyati ishonchli. Fikrlar o'rtasida kuchli bog'lanish va izchillik mavjud, bu esa tinglovchilarga talabaning ifodalaridan to'liq foydalanish imkoniyatini beradi.

Og'zaki nutq ravonligi ham yuqori darajada; talaba nutqi tez va oqilona ifoda etiladi, bu esa ularning fikrlarini tushunarli va ravon tarzda tushuntirishda yordam beradi. Fikrlarni aniq va izchil ifodalash, o'zaro muloqot jarayonida alohida o'rinda turadi. O'quvchining nutqiy ko'nikmalari, shuningdek, muhokama qilish qobiliyati ham yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

5 baho (90-100 ball, a'lo):

Kurs ishini 90-100 ball oralig'ida baholash, talabandan yuqori sifatli ma'lumotlar va mukammal tahlilni anglatadi. Mavzu to'liq va mukammal yoritilgan bo'ladi, bu esa talabaga chuqur va atroflicha tahlil qilish imkonini beradi. O'qituvchi talabandan nimalarni kutgani to'g'risida o'z fikrlarini shakllantirib, ma'lumotlar keltirib, muhokama jarayonlarini samarali

olib borishga qodir.

Tuzilma mantiqiy va izchil bo‘lishi sababli, har bir bo‘lim aniq birlik tuzadi va talabalarga ishni o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Ushbu izchillik fikrlarni oson anglash imkoniyatini beradi va o‘rganilgan bilimlarni shakllantirishda katta yordam beradi.

Talaba har tomonlama puxta va ishonchli manbalardan foydalanib, kuchli dalillar keltiradi. U tadqiqotlarida keng qamrovli yondashuvni ko‘rsatadi, bu esa ishni har tomonlama ishonchli va qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. O‘zining bilimlari va o‘rganilgan material asosida yozilgan ishida to‘g‘ri dalillar keltiriladi, bu esa o‘zi taqdim etayotgan ma’lumotlarning ishonchlilagini oshiradi.

Yozma nutq uslubi talabaning professional tomonidan ishlab chiqilgan darajasini ko‘rsatadi; u tez va aniq fikrlarni muntazam ravishda ifoda etadi, stilistik va grammatik xatolar deyarli yo‘q. Bu esa o‘quvchilar uchun juda qiziqarli va tushunarli qilib yozilgan ishning sifati yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Talabaning o‘z uslubini namoyish etishi va zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashi, uning mustaqil fikr va ijodiy yondashuviga yo‘l ochadi.

Himoya vaqtida, talabaning nutqi aniq, ravon va juda tushunarli bo‘lib, fikrlarni ifoda etishda hech qanday qiyinchilik yoki to‘xtashlar bo‘lmaydi. Talaba o‘z fikrlarini oson va ravon olib borish orqali tinglovchilarga o‘z g‘oyalarini tushunarli tarzda bayon qilish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, talaba o‘z nutqiga zaruriy bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha ko‘rsatmalarni kiritadi hamda muhokamalarda qatnashishda faol ishtirok etadi. Bu esa o‘quvchining notiqlik mahorati va tilni qo‘llash tajribasini kuchaytiradi. Og‘zaki nutq ravonligi o‘ta yuqori, nutqda qatnashchilar bilan o‘zaro aloqa qilish jarayonida hech qanday muammolar paydo bo‘lmaydi. Fikrlar kuchli bog‘langan holda keltiriladi va talaba izchil, aniqlik bilan ish olib boradi.

Bunday mezonlar talabalarning ishini yanada sifatli baholashga yordam beradi, natijada o‘z bilimi, ko‘nikmalari va ifoda etish usullarini san’at darajasida rivojlantirish bilan qisqa vaqtida hissa qo‘sishga imkon beradi. Talabalar uchun buning natijasida mustaqil o‘rganish jarayonini rivojlantirishga va akademik muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Natijada, bu baholash mezonlari, ham yozma, ham og‘zaki ko‘nikmalarni birga baholagan holda talabalarning har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi, bu esa ularni kelgusidagi professional faoliyatlariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar va talabalar uchun bu juda samarali vosita bo‘lib, o‘rganish va o‘zaro munosabatlarni kuchaytirishga yordam beradi.

Baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash jadvali

Mavzuni o'zlashtirish darajasi	Foizda	Reyting	Baho
A+	95 - 100	a'lo	5
A	90-94		
B+	85-89	juda yaxshi	4
B	80-84		
C+	75-79	yaxshi	3
C	70-74		
D+	65-69	qoniqarli	2
D	60-64		
F	59 va undan past	topshirmadi	2

GEOSIYOSAT FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI

1. Tarixiy rivojlanishi: nazariyalar va amaliyot.
2. Geosiyosiy makon va uning davlatlar taraqqiyotiga ta'siri.
3. Xalqaro munosabatlarda kuch balansi: geosiyosiy tahlil.
4. Tabiiy resurslarning geosiyosatdagi roli.
5. Geosiyosiy strategik nuqtalar: tarix va hozirgi zamon tahlili.
6. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining geosiyosiy ahamiyati.
7. Energetika resurslari va geosiyosat: neft va gaz marshruti.
8. Geosiyosiy manfaatlar va xalqaro terrorizm.
9. Rossiyaning geosiyosiy strategiyasi: postsoviet makoni.
10. Xitoyning geosiyosiy tashabbuslari: “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi.
11. Yevropa Ittifoqi va uning geosiyosiy maqsadlari.
12. AQSH tashqi siyosatida geosiyosiy ustuvorliklar.
13. Qurollanish poygasi va uning geosiyosiy ta'siri.
14. Davlat chegaralari va geosiyosiy nizolar.
15. Geosiyosiy makonni baholashda geografik omillar.
16. Markaziy Osiyodagi geosiyosiy raqobat.
17. Islom dunyosining geosiyosiy ahamiyati.
18. Hind-Xitoy mintaqasi va uning geosiyosiy muammolar.
19. Afrika mintaqasi: geosiyosiy muammolar va istiqbollar.
20. Arktika mintaqasi: geosiyosiy manfaatlar va ekologiya.
21. Diniy omillar va geosiyosat: murakkab munosabatlar.
22. Geosiyosiy kuchlarning transmilliy kompaniyalar bilan munosabati.
23. Xalqaro suv resurslari va geosiyosiy nizolar.
24. Zamonaviy texnologiyalar va geosiyosat: kiber xavfsizlik.
25. Davlatlarning demografik rivojlanishi va geosiyosiy oqibatlar.
26. Yadroviy qudratli davlatlar: geosiyosiy tahdidlar va barqarorlik.
27. Geosiyosiy makonda iqtisodiy sanksiyalarning ta'siri.
28. Koreya yarim orolining geosiyosiy muammolari.
29. Jahon savdo yo‘nalishlari va geosiyosiy munosabatlar.
30. Turkiyaning geosiyosiy strategiyasi: tarixiy va hozirgi tahlil.
31. Fors ko‘rfazi mintaqasi: neft siyosatining geosiyosiy ahamiyati.
32. Ekologik muammolar va ularning geosiyosiy ta'siri.
33. Buyuk Britaniyaning geosiyosiy roli: Brexitdan keyin.

34. Hindistonning geosiyosiy strategik maqsadlari.
35. Jahon okeani va geosiyosiy raqobat.
36. Davlatlar o‘rtasidagi transport yo‘laklari va geosiyosiy raqobat.
37. Issiqlik o‘zgarishi va uning geosiyosiy oqibatlari.
38. Afg‘oniston: mintaqaviy barqarorlik va geosiyosiy masalalar.
39. Kosmik makonning geosiyosiy tahlili: imkoniyatlar va xavflar.
40. Qrim masalasi: geosiyosiy tahlil.
41. Tinchlikparvarlik missiyalari va ularning geosiyosiy ahamiyati.
42. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ularning geosiyosiy ta’siri.
43. Geosiyosiy nizolarda diplomatiyaning roli.
44. Jahon turizm yo‘nalishlari va geosiyosat.
45. Dunyoning suv havzalaridagi geosiyosiy raqobat.
46. Ummon dengizi va uning geosiyosiy ahamiyati.
47. Texnologik inqilob va uning geosiyosiy oqibatlari.
48. Qashshoqlik va geosiyosat: rivojlanayotgan mamlakatlar tahlili.
49. Globallashuv jarayonida geosiyosatning o‘rni.
50. Davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning barqaror rivojlanishga ta’siri.

1-ilova

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI



**“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi
“Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari”
fanidan**

**KURS ISHI
MAVZU: Huquqiy xulq atvor**

**Talaba: P.Kimsanov
Guruh: _____ - guruh talabasi**

Ilmiy rahbar: F.Ravshanov

Toshkent – 2024

2-ilova

Mavzu : Huquqiy xulq atvor

Reja:

Kirish qismi:

(Huquq va kishilarning xatti – harakati).

Asosiy qisim:

Huquqiy xulq – atvor tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati.

- 1)Huquqiy xulq atvor turlari va tuzilishi.
- 2)Shaxsnинг ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi omillar.
- 3)Qonunga itoatkor shaxsni shakllantirish masalasi – davr talabi.

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Ilovalar

Mundarija.

Kurs ishini bajarish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar	
1.	Исаев Б. А. Геополитика: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 384 с: ил. — (Серия «Учебное пособие»), ИСБН 5-469-00651-4
2.	Хасанов А. Геосиёсат.— Т.: Tamaddun, 2016.
3.	Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: – “SamDCHTI” nashriyoti, 2023. – 160 bet.
Qo‘srimcha adabiyotlar	
1.	Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqimiz bilan quramiz. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2.	Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017.
3.	Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqimiz bilan quramiz. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
4.	Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – Т.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
5.	Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
6.	Gadjiev K.S. Vvedenie v geopolitiku: Monografiya. – М., 2000.
7.	Kegley Ch.W., Blanton Sh.L. World Politics. Trend and Transformation. USA, Boston: Suzanne Jeans, 2011
8.	Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B. Globalashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Т.-2020
9.	Jumaniyozov X.S., Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Т.-2019.
10	Сафоев. О.Марказий осиёдаги геосиёсат.Т,2005
11	Турсунмуратов Т. Марказий Осиё миңтақавий хавфсизлигини таъминлашда илмий-технологик салоҳият омили. Монография. Т.,2016
12	Гумилев Л.Н. Ритми Евразии. — М.: ЭКОПРОС, 1993
13	Давидова Р.И.,. Кочкина В.Г. Основы геополитики. Н.Новгород. 2001г
14	Дугин А. Основы геополитики. — М.: «Арктогея», 2000.
15	Xo‘janov B.A. Geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar. Т.: STIBOM,
Axborot manbalari	
1.	www.ziyonet.uz .
2.	www.edu.uz .
3.	www.google.uz .
4	www.gov.uz .